


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



KOMMUNIKATIV LEKSIYA
FANINING O'QUV DASTURI
2-kurs

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 230 000 - Tillar
Ta'lim yo'nalishi: 60230100 - Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili)


Fan/modul kodi KLEK2406	O'quv yili 2025-2026	Semestr 4	Kreditlar 6	
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili Arab tili		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Kommunikativ leksiya	72	108	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarning muloqot jarayonida ko'p ishlatiladigan so'zlarni o'rganish va muloqotda qo'llay olish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, yangi so'zlarni yodda saqlashning mos usullaridan foydalanishga, uslublarni bir-biridan farqlashga yo'naltirilgan qator idiomatik ifodalar va og'zaki so'zlashuvdagi so'zlar, jargon va idiomalarni qo'llash, ibora va leksik birliklarni muloqotning turli vaziyatlarida ishlata olish, suhbatdoshini chalg'itmaganda holda so'zlarga ekvivalent bo'lgan terminlarni qo'llash, sinonim, antonim, omonimlardan unumli foydalanishga o'rgatishdir.</p> <p>Fanning vazifasi - CEFR darajalariga mos ravishda og'zaki nutq ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, arab tilidagi turli darajadagi suhbatlarda qatnashish uchun zarur leksik va grammatik bilimlarni mustahkamlash, hayotiy, kasbiy va ilmiy mavzularda suhbat, savol-javob, izoh va fikr almashinuvi orqali muloqot qilish malakasini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda TOP-300 talik ro'yxatiga kiruvchi Qatar University ta'lim dasturi tajribasini o'rgangan holda tuzildi. https://www.qu.edu.qa/en-us/students/documents/vpaa_aqa_2024_2025_ug_catalog_ar_all%20colleges.pdf</p> <p>II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)</p> <p>II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 4-semestr</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. أشكال التحيّة والوداع. 2. يتحدثون عن الاسم والجنس والمهنة. 3. الحديث عن الأسرة والأقارب. 4. أسأل عن مكان السكن والعنوان. 5. الجدول الزمني ومفهوم الوقت. 			

6.	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <p>1. Ibrohimov N., Yusupov M., Oripov A. Arab tili grammatikasi. Darslik - Toshkent: G'afur G'ulom, 2024. - 648 bet.</p> <p>6. Ubayd Muhammad Abdulhalim. "Al-Kamil" B1 - Darslik - T.: "Hilol-Nashr", 2023, -272 b.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <p>1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. — Toshkent: O'zbekiston, 2017. — 48 bet.</p> <p>«Ан-Наъйм» арабча-ўзбекча лугати, Т.: «Мухаррир нашрийоти», 2021- 806 б.</p> <p>Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.gov.uz 2. www.ziyo.net 3. https://ibratfarzandlari.uz 4. http://learning.aljazeera.net. 5. http://attakallum.com 6. www.arabicforall.net.
7.	O'quv dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Dastur universitet Kengashining 2025-yil <u>4 - iyun</u> dagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan (<u>10</u> - sonli bayonnoma).
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>K.Qodirova – O'zDJTU, "Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>M.Abdullayev – O'zDJTU, "Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasini filologiya fanlari nomzodi, dotsent</p> <p>A.Kazakbayev – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasini dotsenti v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</p>

Tarjimonlik fakulteti dekani  U. Yo'ldoshev

Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti

kafedrasini mudiri

 K. Qodirova

Universitet axborot resurs

markazi direktori

 S. Kayumova

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ga ko'ra fanga ajratilgan kredit beriladi.

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida belgilanadi.

Talabalarining bilimini baholash mezonlari:

5 (a'lo) baho – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.

4 (yaxshi) baho – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muayyan amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.

3 (qoniqarli) baho – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talaba fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.

2 (qoniqarsiz) baho – talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.

6. الاحتياجات اليومية: شكر، اعتذار، دعوة.
7. لغة المتجر والسوق (السؤال عن السعر، الشراء).
8. المحادثات في المطاعم والمقاهي.
9. طلب النقل والطرق.
10. الخدمات المصرفية والبريدية.
11. التواصل بين المستشفى والصيدلية.
12. المكالمات الهاتفية والمراسلات.
13. قاموس المدارس والجامعات.
14. الكتب والمكتبة وعادات القراءة.
15. الثقافة والفن (سينما، مسرح، متحف).
16. الرياضة والمناسبات.
17. الأعياد والاحتفالات التقليدية.
18. حوار السفر والسياحة.
19. المين والتواصل في مكان العمل.
20. المحادثة في العمل واللغة المهنية.
21. عملية المقابلة والحوار.
22. الصداقات والعلاقات الاجتماعية.
23. اهتمامات شخصية وهوايات.
24. الصحة ونمط حياة صحي.
25. الحياة في المدينة والريف.
26. البيئة وحماية الطبيعة.
27. التكنولوجيا والإنترنت.
28. لغة وسائل الإعلام.
29. السياسة والحياة الاجتماعية.
30. العولمة والتواصل بين الثقافات.
31. المحادثة اليومية: قضاء وقت الفراغ معاً.
32. أساليب المناقشة والتعبير.
33. التعبير عن المشاعر والمزاج.
34. التواصل في الحالات غير المتوقعة (التعرض للخسارة، طلب المساعدة).
35. أساليب المحادثة الرسمية وغير الرسمية.
36. تدريبات التكرار العام والتواصل الحر.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mashg'ulot jarayonida mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. أساليب التحية والوداع في العربية.

2. التعرف: الاسم والجنسية والمهنة.
3. الحديث عن العائلة والأقارب.
4. وصف السكن والعنوان.
5. التعبير عن الوقت والروتين اليومي.
6. عبارات الشكر والاعتذار.
7. في السوق: المفردات الأساسية للبيع والشراء.
8. في المطعم والمقهى: الحوار مع النادل.
9. المواصلات: السؤال عن الطريق.
10. في البنك: المعاملات المالية.
11. في البريد: إرسال الرسائل والطرود.
12. في المستشفى: عند الطبيب والصيدلية.
13. عبر الهاتف: عبارات التواصل الأساسية.
14. في الفندق: الحجز والاستقبال.
15. في المدرسة: الحصص والمواد الدراسية.
16. في الجامعة: التسجيل والمحاضرات.
17. المكتبة: استعارة الكتب.
18. الثقافة والفنون: المسرح والسينما.
19. الرياضة: الألعاب والمباريات.
20. الأعياد والمناسبات التقليدية.
21. السفر والسياحة: المفردات الأساسية.
22. زيارة المتحف أو المعرض.
23. المهنة: وصف العمل.
24. في مكان العمل: الحوار بين الزملاء.
25. المقابلة الوظيفية.
26. الصداقة والعلاقات الاجتماعية.
27. الهوايات والاهتمامات الشخصية.
28. الصحة ونمط الحياة السليم.
29. التسوق عبر الإنترنت.
30. التطوع والعمل الاجتماعي.
31. المدينة والريف: مقارنة.
32. البيئة وحماية الطبيعة.
33. التكنولوجيا الحديثة: الحاسوب والهاتف.
34. وسائل الإعلام: الصحف والتلفزيون.
35. الحوار الثقافي بين الشعوب.
36. السياسة والمجتمع.
37. العولمة وأثرها على اللغة.
38. الهجرة والاعتراب.
39. وصف شخصية مشهورة.
40. الحديث عن يوم لا ينسى.
41. التعبير عن المشاعر (فرح – حزن – غضب).
42. سرد قصة قصيرة.
43. مناقشة موضوع معين مع الزملاء.
44. كتابة رسالة شخصية.
45. كتابة رسالة إلكترونية رسمية.

46. إعداد عرض شفوي قصير.
47. الحوار في مواقف طارئة (ضياح – طلب مساعدة).
48. المقارنة بين التحية في العربية ولغة أخرى.
49. الرأي والمجادلة: كيف تعبر عن رأيك؟
50. اللهجات العربية والفصحى: مقارنة بسيطة.
51. التعبير عن الأمنيات والأحلام.
52. المستقبل المهني: ماذا تريد أن تصبح؟
53. وصف رحلة قمت بها.
54. مراجعة عامة: إعداد قاموس مصغر للتواصل اليومي.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar o'quv dasturida tavsiya etilgan qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, o'zlashtirish, ularni tahlil qilish, berilgan mavzular bo'yicha portfolio tayyorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**
 - arab tilidagi og'zaki muloqotda faol ishtirok eta oladi, o'z fikr va mulohazalarini aniq, mantiqiy va grammatik jihatdan to'g'ri bayon qila olishi;
 - turli kontekstlarda — kundalik, ilmiy va kasbiy mavzularda — suhbat qurish, fikr almashish, savol-javob qilish kabi og'zaki nutq strategiyalaridan foydalana olishi;
 - arab tilidagi eshitilgan axborotni umumiy va tafsilotli tushunadi hamda unga nisbatan munosabat bildirishi;
 - turli og'zaki shakllardagi matnlar asosida suhbatlar, monologlar va nutqlar tayyorlash ko'nikmasiga ega bo'lishi;
 - bosqichma-bosqich murakkablashadigan arabcha matnlar asosida tushunish va muhokama qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi;
 - arabcha og'zaki nutqda ijtimoiy-madaniy kontekstni inobatga olgan holda fikr bildirishga tayyor bo'lishi.
4. **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**
 - interfaol keys-stadilar;
 - amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
 - guruh, mikroguruh bo'lib ishlash;
 - taqdimotlarni qilish;
 - individual loyihalar;
 - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5. **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**